



XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr

VII-17-149-5-71-K/25

Karmana tumani

Karmana tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27,99-moddalari, "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2025-yil 25 dekabrda O'RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrda VI-22-165-5-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Navoiy viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrda 01-12/20-01-38/31-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Karmana tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrda VI-22-165-5-0-K/25-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Karmana tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari 119 086 760,0 ming so'm va xarajatlari esa 119 086 760,0 ming so'mga ma'lumot uchun qabul qilinganligi hamda shuningdek Karmana tuman budjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 1 128 369,0 ming so'm etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. 2025-yilgi tumanni rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi 1-ilovaga, tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2026-yil uchun 1 589 797,0 ming so'm miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg'armasi mablag'larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib

bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi ta'minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (Sh.Zayniyev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (U.Rustamov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Axmedov) bilan birgalikda 2026 yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

6. Hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishi;

o'zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to'g'ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi;

o'z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirib borilishini ta'minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (Y.Murodov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (Sh.Zayniyev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiyada raislik qiluvchi



**URALOV
MAMASOLI
RABBIMOVICH**

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrda
VII-17-149-5-71-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Karmana tumanining 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz
ko'rsatkichlari**

№	Ko'rsatkichlar	2026-yil uchun prognoz	Maqsadli mo'ljallar	
			2027-yil	2028-yil
1.	Ist'emol narxlari indeksi, o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	8,0	7,5	7,0
2.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	6,5	7,0	7,5
3.	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	5,8	5,8	5,3
4.	Xizmatlar ko'rsatishning o'sish sur'ati, foizda	19,6	14,6	14,6

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-149-5-71-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Karmana tumanining tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yildagi
asosiy prognoz ko'rsatkichlari**

T/R	Daromad turlari	Jami (ming so'mda)
	Daromad jami	119 086 760,0
1	Aylanmadan soliq	13 741 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	4 592 676,0
3	Qo'shilgan qiymat solig'i	3 522 384,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 592 000,0
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	10 760 000,0
6	Yuridik shaxslar yer solig'i	26 114 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	18 795 000,0
8	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	17 683 700,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	8 320 000,0
10	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	582 000,0
11	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 384 000,0

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-149-5-71-K/25 -son qaroriga
3-ilova

**2026-yil uchun Karmana tuman budjetidan birinchi darajali budjet
mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan
miqdorlari**

№	Ko'rsatkichlar	Miqdori (ming so'mda)
	Xarajatlar miqdori, Jami	119 086 760,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	119 086 760,0
1	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	23 910 664,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	23 910 664,0
	Umumiy ta'lim	8 966 159,0
	Maktabgacha ta'lim	12 905 105,0
	"Mening maktabim"	2 039 400,0
2	Tuman madaniyat bo'limi	4 997 501,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 997 501,0
3	Tuman Yoshlar ishlari agentligi bo'limi	5 212 657,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	5 212 657,0
4	Tuman sport bo'limi	8 216 070,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	8 216 070,0
5	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi	1 944 859,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 944 859,0

6	Tuman qishloq xo'jalik bo'limi	4 182 229,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 182 229,0
	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	3 796 335,0
	Tuman fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	385 894,0
7	Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi	2 295 974,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 295 974,0
8	Tuman hokimligi	36 134 810,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	36 134 810,0
	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	6 508 726,0
	Tuman mahallabay ishlash tadbirkorlikni rivojlantirish markazi	4 811 928,0
	Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining tuman bo'limi	2 271 791,0
	Hokimliklarning zaxira jamg'armalari	1 589 797,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	19 362 568,0
	"Mahalla budjeti" jamg'armasi mablag'lari	1 590 000,0
9	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	28 538 855,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	28 538 855,0
	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	24 138 855,0
	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarini ta'mirlash xarajatlariga	4 400 000,0
10	Tuman suv yetkazib berish xizmati DM	2 475 000,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 475 000,0
11	Tuman Ijtimoiy himoya milliy agentligi bo'limi	151 448,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	151 448,0
12	Tuman hokimiyat (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1 026 693,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 026 693,0

	Tuman xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	147 203,0
	Tuman Axborot-kutubxona markazlari	879 490,0